Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 1 (2025) · “Raqamli iqtisodiyot sharoitida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va yuqori i... DOI: 10.5281/zenodo.24317361

- важно учитывать риски, при некачественной рекламы, могут привести к разочарованию пациентов;
- соблюдать этические нормы в рекламе, включая получение согласия пациентов на публикацию их данных.

Использованная литература:

1. Д. Агарков и С. Езепенко Кейс: Продвижение стоматологии. Конверсия 94% в запись на прием при снижении цены заявки в 5-8 раз/ https:vc.ru
2. Блог в Medreclama/ https:medreclama.ru
3. Покажем людям ценность вашего продукта и построим эффективную систему закупки трафика/ https:shmargun.ru
4. Раздел-Связанный с медицинским маркетингом или услугами клиник/https:saler/kz
5. Kotler P., Keller K. L. Marketing Management. Pearson Education, 2016./https:
6. Chaffey D., Ellis-Chadwick F. Digital Marketing: Strategy, Implementation and Practice. Pearson, 2019. /https:
7. Lee, S., & Park, H. (2020). “The Role of Visual Content in Social Media Marketing for Healthcare Services.” Journal of Healthcare Marketing, 12(3), 45–58./ https:
8. Statista. “Global Digital Advertising Spending Report,” 2023./ https:

BYUDJET TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY NATIJALAR HISOBINI YURITISHNING HUQUQIY VA AMALIY ASOSLARI

Azamov Afzalbek Yorqinjon O‘g‘li
Andijon davlat texnika instituti Muhandislik
Iqtisodiyoti va boshqaruv fakulteti
Buxgalteriya hisobi va auditi 4-kurs talabasi
afzalbekazam@gmail.com

Annotatsiya : Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasidagi byudjet tashkilotlarida moliyaviy natijalar hisobini yuritishning huquqiy va amaliy asoslari tahlil qilinadi. Maqolada moliyaviy natijalarni hisoblash va hisobot berish tartibini belgilovchi asosiy qonun va normativ hujjatlar ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, byudjet tashkilotlarida moliyaviy intizom va hisobdorlikni ta’minlash bo‘yicha amaliyotga e’tibor qaratiladi. Tadqiqot natijalari moliyaviy boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Published: 24.05.2025
Cite this article: Azamov Afzalbek Yorqinjon O‘g‘li (2025). Byudjet tashkilotlarida moliyaviy natijalar hisobini yuritishning huquqiy va amaliy asoslari. Emro Science and Education, 2(1). https://doi.org/10.5281/zenodo.24317361
© 2025 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Kalit so‘zlar: Byudjet tashkilotlari, Moliyaviy natijalar, Yagona hisob rejasi, Moliyaviy nazorat, Mablag‘lar boshqaruvi, Buxgalteriya hisobi, Moliya vazirligi.
Annotation: This thesis analyzes the legal and practical foundations of accounting for financial results in budgetary organizations of the Republic of Uzbekistan. The thesis examines the main laws and regulatory documents that govern the calculation and reporting of financial results. Additionally, it focuses on the practice of ensuring financial discipline and accountability within budgetary organizations. The research findings aim to contribute to improving the efficiency of financial management.
Keywords: Budget organizations, Financial results, Unified chart of accounts, Financial control, Fund management, Accounting, Ministry of Finance.

KIRISH

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida byudjet tashkilotlari tomonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy vazifalar davlatning barqaror rivojlanishida muhim o‘rin egallamoqda. Shu nuqtayi nazardan, byudjet tashkilotlarida moliyaviy natijalarni shakllantirish, yuritish va tahlil qilish tizimi nafaqat moliyaviy intizomni mustahkamlash, balki davlat moliyasining ochiqligi va shaffofligini ta’minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, moliyaviy natijalarni huquqiy jihatdan to‘g‘ri tashkil etish va amaliyotda qo‘llash byudjet intizomi, samardorlik va davlat nazoratining samarali yuritilishiga xizmat qiladi.

ASOSIY QISM

Byudjet tashkilotlari — bu davlat tomonidan belgilangan ijtimoiy-maqsadli funksiyalarni bajaruvchi, notijorat yo‘nalishda faoliyat yurituvchi tashkilotlardir. [1]
Moliyaviy natijalar byudjet tashkiloti tomonidan o‘ziga ajratilgan moliyaviy resurslardan qanday foydalanganini, ya’ni belgilangan vazifalarni bajarishda qanday natijaga erishganini ko‘rsatadi. Ular quyidagi jihatlar orqali baholanadi:

1) Davlat byudjetidan ajratilgan mablag‘larning to‘g‘ri sarflanishi;
2) Xarajatlarning smeta ko‘rsatkichlariga mosligi;
3) Moliya intizomining ta’minlanganlik darajasi;
4) Moliyaviy hisobotlarda aniqlik va shaffoflik.

Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan buxgalteriya hisobining yagona hisob rejasi asosida byudjet tashkilotlari xarajatlarining aniq hisobini yuritadi. Bundan tashqari, har chorakda va yil yakunida moliyaviy hisobotlar shakllantiriladi va ular orqali tashkilot faoliyati natijalari baholanadi. [2] Shuningdek, “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonun (2016-yil 13-aprel, O‘RQ-404-son) hamda Moliya vazirligining 2020-yilda joriy etilgan yagona buxgalteriya hisob

tizimi moliyaviy natijalarni aniq va tizimli yuritish uchun huquqiy asos vazifasini o‘taydi.

Byudjet tashkilotlarida moliyaviy natijalar hisobini yuritish O‘zbekiston Respublikasining tegishli qonunlari, farmonlari va normativ-huquqiy hujjatlari bilan tartibga solinadi. Ushbu hujjatlar moliyaviy nazorat, byudjet mablag‘larini boshqarish, hisobdorlik va shaffoflikni ta’minlashga qaratilgan.

“Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonun (2016-yil 13-aprel, O‘RQ-404-son) byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi yuritish va moliyaviy hisobotlarni tayyorlash tartibini belgilaydi. [3]

O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti to‘g‘risidagi yillik qonunlar har yili byudjet tashkilotlariga ajratiladigan mablag‘lar miqdori va yo‘nalishlarini belgilaydi va shu o‘rinda Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan yagona hisob rejasi byudjet tashkilotlarida hisob-kitoblarni standartlashtirish va hisobdorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat moliyaviy nazorati to‘g‘risidagi Qonun (2021-yil) moliyaviy nazorat mexanizmlarini mustahkamlash va moliyaviy resurslarning maqsadli ishlatilishini ta’minlashga yo‘naltirilgan.

Amaliyotda byudjet tashkilotlarida moliyaviy natijalar hisoboti quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

Byudjet smetalari asosida mablag‘larni taqsimlash va ularning maqsadga muvofiqligi nazorat qilinadi.

Buxgalteriya hisobi yagona hisob rejasi asosida yuritilib, xarajatlar va boshqa moliyaviy ko‘rsatkichlar aniqlanadi.

Har chorak va yil yakunida moliyaviy hisobotlar tayyorlanadi, bu hisobotlar Moliya vazirligi va boshqa nazorat organlariga taqdim etiladi.

Moliyaviy natijalar asosida byudjet tashkilotining faoliyati samaradorligi tahlil qilinadi, moliyaviy intizom buzilishlari aniqlanib, javobgarlik choralari ko‘riladi. [4]

Masalan, 2020-yildan boshlab Moliya vazirligi tomonidan joriy etilgan yagona buxgalteriya hisob rejasi byudjet tashkilotlarida moliyaviy natijalarni yagona uslubda va aniq yuritishga imkon berdi, bu esa moliyaviy hisobotlarning shaffofligi va ishonchliligini oshirdi.

Shunday qilib, huquqiy va amaliy jihatdan byudjet tashkilotlarida moliyaviy natijalar hisobini yuritish tizimi mamlakatimizda davlat moliyasining samarali boshqaruvini ta’minlash uchun mustahkam asos yaratadi.

Xulosa qilib aytganda byudjet tashkilotlarida moliyaviy natijalar hisobini yuritish O‘zbekiston Respublikasining tegishli qonunlari, farmonlari va normativ-huquqiy

hujjatlariga asoslangan holda amalga oshiriladi. Ushbu tizim davlat mablag‘larining maqsadga muvofiqligi, samarali ishlatilishi va hisobdorlik tamoyillarining ta’minlanishida muhim rol o‘ynaydi.

Moliyaviy natijalar nafaqat tashkilotning iqtisodiy faoliyatining bahosi, balki davlat moliyasining shaffofligi va barqarorligini kafolatlovchi omil hisoblanadi. Shuning uchun, moliyaviy natijalarni yuritishning huquqiy asoslari va amaliy mexanizmlarini doimiy takomillashtirish zarur.

Kelajakda byudjet tashkilotlarida moliyaviy natijalar hisobini yanada samaraliroq yuritish uchun qonunchilik bazasini takomillashtirish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish va moliyaviy nazorat tizimini kuchaytirish muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. (2020). Byudjet tashkilotlari faoliyatini tartibga solish bo‘yicha qo‘llanma. Toshkent: Moliya vazirligi nashriyoti.
2. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. (2021). Byudjet tashkilotlarining moliyaviy natijalarini hisobga olish va nazorat qilish bo‘yicha metodik qo‘llanma. Toshkent: Moliya vazirligi nashriyoti.
3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi. (2016). “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonun (13-aprel, O‘RQ-404-son). Toshkent.
4. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. (2019). Moliyaviy nazorat va moliyaviy intizomni ta’minlash bo‘yicha ko‘rsatmalar. Toshkent: Moliya vazirligi nashriyoti.

UZOQ VA QISQA MUDDATLI AKTIVLARNI SAMARALI BOSHQARISH ORQALI KORXONALARDA BARQAROR IQTISODIY O‘SISHNI TA’MINLASH

Alijonov Ergashboy Ilhomjon o‘g‘li
Andijon davlat texnika instituti
Muhandislik iqtisodiyoti va boshqaruv fakulteti
Buxgalteriya hisobi va auditi 4-kurs talabasi
alijonovergashboy787@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada korxonalarda uzoq va qisqa muddatli aktivlarni samarali boshqarishning barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashdagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Aktivlarni boshqarish mexanizmlarining korxona likvidligi, investitsion*